Kalit so'zlar: Biologiya ta'limi, masala va mashqlar, kreativ tafakkur, muammoli ta'lim, tadqiqot faoliyati, divergent fikrlash, integrativ yondashuv, didaktik vositalar, mustaqil fikrlash, metodik yondashuv.

Abstract: This article provides a scientific and methodological analysis of the types of tasks and exercises used in biology education, their content, and their role in developing students' creative thinking. The study examines the didactic potential of reproductive, partially exploratory, problem-based, research-oriented, and integrative tasks. It also substantiates the content components of tasks and exercises, the principles of their design, and effective methods for their implementation in the educational process. The article presents practical tasks and methodological recommendations aimed at enhancing creative thinking in biology classes. The findings demonstrate that the purposeful use of tasks and exercises contributes to the development of independent thinking, problem-solving skills, and decision-making based on a scientific approach.

Key words: Biology education, tasks and exercises, creative thinking, problem-based learning, research activity, divergent thinking, integrative approach, didactic tools, independent thinking, methodological approach.

Аннотация: В данной статье научно-методически проанализированы виды задач и упражнений, применяемых в обучении биологии, их содержание, а также их роль в развитии креативного мышления учащихся. В исследовании раскрываются дидактические возможности репродуктивных, частично-поисковых, проблемных, исследовательских и интегративных заданий. Также обоснованы содержательные компоненты задач и упражнений, принципы их конструирования и эффективные способы применения в образовательном процессе. В статье представлены практические задания и методические рекомендации, направленные на развитие креативного мышления на уроках биологии. В результате доказано, что целенаправленное использование задач и упражнений способствует развитию самостоятельного мышления, умения решать проблемные ситуации и принимать решения на основе научного подхода.

Ключевые слова: Биологическое образование, задачи и упражнения, креативное мышление, проблемное обучение, исследовательская деятельность, дивергентное мышление, интегративный подход, дидактические средства, самостоятельное мышление, методический подход.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish va innovatsion rivojlanish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtira oladigan, balki ularni mustaqil ravishda qayta ishlay oladigan, yangi g'oyalar ishlab chiqadigan va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topa oladigan mutaxassislarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish masalasi alohida dolzarflik kasb etadi. Ayniqsa, biologiya fanining murakkab va ko'p qirrali mazmuni talabalardan nafaqat bilim, balki yuqori darajadagi fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini talab qiladi.



Biologiya ta'limida kreativ tafakkur talabalarning tabiiy hodisalarni chuqur anglash, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish hamda ilmiy muammolarga yangicha yondashuv asosida yechim topish imkonini beradi. Kreativ fikrlash rivojlangan shaxs biologik jarayonlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab tahlil qila oladi. Bu esa o'z navbatida biologiya fanini o'qitishda an'anaviy usullardan tashqari, innovatsion va interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida masala va mashqlar muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular talabalarning bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliyotda qo'llash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, muammoli va ijodiy xarakterdagi masala va mashqlar talabalarning fikrlash doirasini kengaytirib, ularni izlanishga undaydi. Bunday topshiriqlar orqali talabalar biologik qonuniyatlarni chuqurroq anglaydi, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlaydi hamda o'z fikrini asoslab bera olishga o'rganadi.

Mazkur maqolaning maqsadi biologiya ta'limida qo'llaniladigan masala va mashqlarning turlarini, ularning mazmunini hamda kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: biologiya ta'limida masala va mashqlarning mohiyatini aniqlash; ularning asosiy turlarini tasniflash; mazmuniy va didaktik xususiyatlarini yoritish; hamda masala va mashqlar orqali talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash.

Biologiya ta'limida masala va mashqlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vositalardan biridir. Ular ta'lim jarayonida nafaqat bilimni tekshirish, balki uni chuqurlashtirish, tizimlashtirish va ijodiy qo'llash imkonini beradi.

Masala va mashq tushunchasining pedagogik mohiyati, avvalo, talabaning bilish faoliyatini faollashtirish bilan belgilanadi. Mashq odatda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan takroriy yoki tizimli topshiriq bo'lsa, masala esa muayyan muammoli vaziyatni o'z ichiga olgan bo'lib, uni hal etish jarayonida talaba tahlil qiladi, solishtiradi, umimlashtiradi va xulosa chiqaradi. Shu jihatdan masalalar talabalarda mantiqiy va kreativ tafakkurni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Pedagogik nuqtai nazardan, samarali tashkil etilgan masala va mashqlar talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Biologiya faniga xos masala va mashqlar o'zining mazmuni va yo'nalishi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Ular asosan tirik organizmlar, biologik jarayonlar, ekologik tizimlar va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Biologik masala va mashqlarda ko'pincha kuzatish, tajriba natijalarini tahlil qilish, diagramma va jadval bilan ishlash, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish kabi faoliyat turlari qo'llaniladi. Bundan tashqari, biologiya fanidagi topshiriqlar talabalardan sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, jarayonlarni tushuntirish hamda ilmiy xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy va amaliy mashqlar o'rtasidagi farqlar ham biologiya ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy mashqlar asosan o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash, tushunchalar va qonuniyatlarni anglashga qaratilgan bo'lib, ular ko'proq savol-javob, izohlash, taqqoslash va tahlil qilish shaklida namoyon bo'ladi. Amaliy mashqlar esa talabalarning bilimlarini real faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, laboratoriya ishlari, tajribalar o'tkazish, biologik obyektlarni kuzatish va tadqiq etishni o'z ichiga oladi. Amaliy mashqlar orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantiradi, tajriba asosida xulosa chiqarishni o'rganadi. Shu bois, biologiya ta'limida nazariy va amaliy mashqlarni uyg'un holda qo'llash talabalarning bilim darajasi va kreativ tafakkurini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi^[2].

Biologiya ta'limida masala va mashqlar talabalarning bilim darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim didaktik vositalardan hisoblanadi. Ularning turlari talabalarning fikrlash faoliyatini oddiy takrorlashdan boshlab, murakkab ijodiy va tadqiqot darajasigacha olib chiqishga yo'naltiriladi.

Quyida biologiya fanida keng qo'llaniladigan asosiy masala va mashq turlari ilmiy-metodik manbalarga tayangan holda yoritiladi:

- 1. Reproduktiv (takrorlashga oid) mashqlar.** Mazkur mashqlar talabalarning ilgari o'zlashtirgan bilimlarini qayta tiklash va mustahkamlashga qaratilgan. Ular ko'pincha faktlarni eslab qolish, ta'riflarni qayta aytish, tayyor namunalar asosida ishlashni o'z ichiga oladi. Reproduktiv mashqlar boshlang'ich bosqichda zarur bo'lib, talabalarda tayanch bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Biroq ular yuqori darajadagi tafakkurni rivojlantirish uchun yetarli emas^[6].
- 2. Qisman izlanishga yo'naltirilgan mashqlar.** Bu turdagi mashqlar talabalarning mustaqil fikrlashini qisman rag'batlantiradi. Unda talaba muammoni hal qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan berilgan yo'nalish yoki ko'rsatmalarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Masalan, biologik jarayonni tushuntirish




uchun berilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish talab etiladi. Bunday mashqlar talabalarda tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi [7].

3. **Muammoli (problemali) masalalar.** Muammoli masalalar talabalarda bilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi. Ushbu topshiriqlarda aniq yechim darhol berilmaydi, balki talaba muammoni hal etish uchun turli variantlarni ko'rib chiqadi, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlaydi va ilmiy asoslangan xulosaga keladi. Muammoli vaziyatlar orqali talabalarning kreativ tafakkuri, muammoga yangicha yondashish qobiliyati rivojlanadi [8].
4. **Tadqiqot xarakteridagi mashqlar.** Tadqiqotga yo'naltirilgan mashqlar biologiya ta'limida eng yuqori darajadagi faoliyatni talab etadi. Bu mashqlar talabalarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular muammoni mustaqil aniqlash, gipoteza ilgari surish, tajriba o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o'z ichiga oladi. Bunday mashqlar orqali talabalar haqiqiy ilmiy faoliyatga yaqinlashadi va ularning ijodiy hamda tanqidiy tafakkuri rivojlanadi [9].
5. **Integrativ (fanlararo) masalalar.** Integrativ masalalar biologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'lash orqali bilimlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, biologiya va kimyo, fizika yoki geografiya fanlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib beruvchi topshiriqlar talabalarning keng qamrovli fikrlashini shakllantiradi. Bunday mashqlar orqali talabalar turli fanlardan olingan bilimlarni uyg'unlashtirib, kompleks muammolarni hal qilishga o'rganadi [10].

Ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyati darajasi, mantiqiy tafakkuri hamda integrativ fikrlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mezonlariga asoslanadi [2].

- *Birinchi daraja* reproduktiv xarakterga ega bo'lib, asosan fakt, atama va tushunchalarni eslab qolish hamda ularni taqqoslashga qaratilgan.
- *Ikkinchi daraja* biologik qonun va qonuniyatlarni standart vaziyatlarda qo'llash hamda obyekt va hodisalarni mantiqiy taqqoslashni talab etadi.
- *Uchinchi daraja* biologik jarayonlarning mexanizmini ochib berish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va tahlil qilishga yo'naltiriladi (1-rasm).
- *To'rtinchi daraja* turli biologik bo'limlar hamda fanlararo bilimlarni integratsiyalash asosida kompleks muammolarni hal etishni nazarda tutadi.
- *Beshinchi daraja* esa biologik tushuncha, qonuniyat va nazariyalarni chuqur umumlashtirish, tizimlashtirish hamda yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llashni ifodalaydi.

Mualliflik nuqtai nazaridan, taklif etilayotgan mazkur darajali tasnif biologik ta'lim jarayonida masalalarni differensial tanlash, ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyati darajasini aniqlash hamda ularning intellektual rivojlanishini bosqichma-bosqich baholash imkonini beradi [U.Raxmatov].



1-rasm: Biologik masala va mashqlarning murakkablik darajasiga ko'ra turlari (U.Raxmatov bo'yicha)



Demak, biologiya ta'limida masala va mashqlarning turli darajada tashkil etilishi talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularni to'g'ri tanlash va metodik jihatdan asosli qo'llash esa kreativ tafakkurni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Biologiya ta'limida masala va mashqlarning samaradorligi ularning mazmuni va tuzilishiga bevosita bog'liqdir. To'g'ri tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularni tizimlashtirish hamda amaliy faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi. Shu bois masala va mashqlarni ishlab chiqishda ularning mazmuniy komponentlari, didaktik talablari, murakkablik darajasi hamda hayotiy yo'naltirilganligi alohida e'tiborga olinadi^[4].


Masala va mashqlarning mazmuniy komponentlari, avvalo, biologik bilimlarning asosiy elementlari – faktlar, tushunchalar va qonuniyatlardan tashkil topadi. Faktlar biologik obyekt va hodisalar haqidagi aniq ma'lumotlarni ifodalaydi (masalan, hujayra tuzilishi, organizmlarning xususiyatlari). Tushunchalar esa ushbu faktlarni umumlashtirish orqali shakllanib, o'quvchilarning nazariy tafakkurini rivojlantiradi. Qonuniyatlar esa biologik jarayonlarning ichki bog'lanishlari va rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. Mazkur komponentlarning uyg'unligi masala va mashqlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarda yaxlit biologik dunyoqarashni shakllantiradi^[1].

Didaktik talablar masala va mashqlarni tuzishda muhim mezon hisoblanadi. Avvalo, topshiriqlar o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, ular aniq maqsadga yo'naltirilgan, tushunarli va izchil tuzilgan bo'lishi kerak. Masala va mashqlar o'quvchilarni faol fikrlashga undashi, ularni mustaqil izlanishga rag'batlantirishi lozim. Bundan tashqari, topshiriqlar ta'limning nazariy va amaliy jihatlari uyg'unlashtirishi, fanlararo bog'liqlikni aks ettirishi hamda bosqichma-bosqich murakkablashib borishi talab etiladi.

Mashq va masalalarning murakkablik darajasi o'quvchilarning bilim darajasi va tayyorgarligiga mos holda belgilanishi kerak. Dastlab oddiy reproduktiv topshiriqlardan boshlab, keyinchalik qisman izlanishga yo'naltirilgan va muammoli masalalarga o'tiladi. Yuqori bosqichda esa tadqiqot xarakteridagi murakkab topshiriqlar qo'llaniladi. Bunday ketma-ketlik o'quvchilarning fikrlash faoliyatini izchil rivojlantirishga, ularni oddiydan murakkabga o'tish tamoyili asosida o'qitishga imkon beradi. Shu bilan birga, murakkablik darajasining to'g'ri tanlanishi o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

Masala va mashqlarning hayotiylik va amaliy yo'naltirilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Biologiya fanining mazmuni bevosita real hayot bilan bog'liq bo'lganligi sababli, topshiriqlar ham o'quvchilarning kundalik hayoti, atrof-muhit, sog'liqni saqlash va ekologik muammolar bilan bog'lanishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarga o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi, ularning ekologik madaniyati va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Amaliy yo'naltirilgan masala va mashqlar esa o'quvchilarning tajriba o'tkazish, kuzatish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotchi O.S.Xolmurodova o'zining izlanishlari davomida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarni rivojlanishiga imkon beradigan masala va mashqlarning mazmuniga ko'ra 2-rasmdagi turlarga ajratishni taklif etgan^[5].



2-rasm: Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlanishiga imkon beradigan masala va mashqlarning mazmuniga ko'ra turlari(O.S.Xolmurodova bo'yicha).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy biologiya ta'limida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Masala va mashqlar bu jarayonda nafaqat bilimni mustahkamlash vositasi, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiruvchi samarali metodik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil yaratuvchi subyektga aylantiradi.

Kreativ tafakkur tushunchasi odatda yangi g'oyalarni ilgari surish, noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangicha kombinatsiyada qo'llay olish qobiliyati bilan izohlanadi. Uning asosiy komponentlariga originallik (yangilik yaratish), moslashuvchanlik (turli yondashuvlarni qo'llay olish), ravonlik (ko'p g'oya ishlab chiqish) va aniqlik (g'oyani mukammallashtirish) kiradi. Biologiya ta'limida ushbu komponentlarni rivojlantirish masala va mashqlar orqali samarali amalga oshiriladi, chunki biologik mazmun o'z tabiatiga ko'ra murakkab, tizimli va ko'p variantli yechimlarni talab etadi.

Muammoli vaziyatlar yaratish kreativ tafakkurni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar oldida aniq va tayyor yechimga ega bo'lmagan savol yoki topshiriq qo'yiladi. Masalan, ekologik muammolar, organizmlarning moslanish mexanizmlari yoki genetik o'zgarishlar bilan bog'liq masalalar o'quvchilardan chuqur tahlil va mustaqil xulosa chiqarishni talab qiladi. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarda bilishga qiziqishni kuchaytiradi, ularni izlanishga undaydi va natijada ijodiy fikrlash faollashadi.

Divergent fikrlashni rivojlantirish biologiya ta'limida muhim metodik yo'nalish hisoblanadi. Divergent fikrlash bir muammoning bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishga asoslanadi. Bu jarayonda o'quvchilarga ochiq turdagi savollar, bir nechta to'g'ri javobga ega topshiriqlar, taqqoslash va modellashtirishga oid mashqlar beriladi. Masalan, "agar muayyan ekologik omil o'zgarsa, organizm qanday moslashadi?" kabi savollar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Shuningdek, diagramma tuzish, biologik jarayonlarni modellashtirish va alternativ gipotezalar ilgari surish kabi usullar ham divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masala va mashqlar orqali mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida ma'lumotlarni tahlil qiladi, muhim belgilarni ajratadi, muammoni hal qilish yo'llarini tanlaydi va yakuniy qarorga keladi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tadqiqot xarakteridagi mashqlar va muammoli masalalar o'quvchilarga mustaqil ravishda gipoteza ilgari surish, uni tekshirish va asoslangan xulosa chiqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biologiya ta'limida masala va mashqlardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilimni chuqurlashtirish bilan birga, ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois dars jarayonida nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish muhim metodik yondashuv hisoblanadi.

Biologiya fanida qo'llaniladigan mashqlar turli yo'nalishda bo'lib, ular o'quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda tanlanadi.

Masalan:

- **Reproduktiv mashq:** "Hujayraning asosiy qismlarini sanab bering va ularning funksiyalarini izohlang.";
- **Tahliliy mashq:** "O'simlik va hayvon hujayralarining o'xshash va farqli jihatlarini jadval asosida taqqoslang.";
- **Muammoli masala:** "Agar muhit harorati keskin pasaysa, o'simliklarda fotosintez jarayoni qanday o'zgaradi? Sababini tushuntiring.";
- **Amaliy mashq:** "Mikroskop yordamida piyoz po'sti hujayrasini kuzating va natijalarni rasm yoki sxema ko'rinishida ifodalang.".

Bunday mashqlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy faoliyatga jalb etadi.

Kreativlikni oshiruvchi topshiriqlar namunasi. Kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun an'anaviy topshiriqlardan tashqari, ochiq va ijodiy xarakterdagi mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

1. "Agar siz biolog olim bo'lsangiz, yangi o'simlik turini qanday yaratgan bo'lardingiz? Uning xususiyatlarini tavsiflang."
2. "Ekologik muammoni tanlang va unga biologik yechim taklif qiling."
3. "Genetik o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi organizm modelini ishlab chiqing."
4. "Ma'lum bir ekotizimni tasvirlab, undagi o'zgarishlar qanday oqibatlariga olib kelishini prognoz qiling."



Bunday topshiriqlar o'quvchilarda divergent fikrlashni rivojlantiradi, ularni mustaqil g'oya ishlab chiqishga undaydi va biologik bilimlarni real hayot bilan bog'lashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchi uchun metodik tavsiyalar: Biologiya darslarida masala va mashqlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi metodik jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- mashq va masalalarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tizimli tashkil etish;
- har bir topshiriqni aniq didaktik maqsadga yo'naltirish;
- muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi savollarni ko'proq qo'llash;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga keng o'rin berish;
- fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali bilimlarni chuqurlashtirish;
- har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish.

Shuningdek, o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishi mumkin.

Biologiya ta'limida masala va mashqlardan samarali foydalanish o'quvchilarning nafaqat bilimini mustahkamlash, balki ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishda ham muhim metodik vosita ekanligi tadqiqot davomida asoslandi. Mazkur topshiriqlar tizimli ravishda tashkil etilganda o'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, biologiya fanida qo'llaniladigan masala va mashqlarni reproduktivdan boshlab, muammoli va tadqiqot xarakterigacha bo'lgan bosqichlarda izchil qo'llash o'quvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoga turli nuqtai nazardan yondashish hamda yangi g'oyalar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, masala va mashqlarning mazmunini to'g'ri tanlash, ularni hayotiy va amaliy vaziyatlar bilan bog'lash o'quvchilarning biologik bilimlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning ekologik hamda ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatov U.E. Masala mashqlar orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Monografiya. – T.: LAVITA PRINT, 2025. – 162 b.
2. Raxmatov U.E., Shaxmurova G.A., Azimov I.T. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Darslik. "SARVAR PRINT" nashriyoti - Toshkent, - 2024 - 299 b.
3. Jumanov M.A., Raxmatov U.E. Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta'limi pedagogika va psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. – Toshkent, 2025. № 9-son. – B. 387-392.
4. Raxmatov U.E. Biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechishda integrativ yondashuvni tadbiq etish metodikasi // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy Axborotlari ilmiy-nazariy jurnali – Toshkent, 2025. №9-son. B. 114-128.
5. Raxmatov U.E., Xolmurodova O.S. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda foydalaniladigan masala va mashqlarni tanlash mezonlari va ko'rsatkichari // Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендирий – Нөкис, 2023. №2/3-сан. ISSN 2181-7139 – B. 196-200.
6. Ismoilov A.A. Biologiya ta'limida masala va mashqlardan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 128 b.
7. Saidov B.B. Biologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 156 b.
8. Jo'rayev Sh.Sh. Muammoli ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 142 b.
9. Qodirov N.N. Biologiya ta'limida tadqiqot faoliyatini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2018. – 134 b.
10. Karimova D.D. Fanlararo integratsiya asosida ta'lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 150 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.